

**MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL
ETISHNING SAMARALI USULLARI**

Xajiqurbonova N

“Yosh kitobxon-2022” tanlovi sovrindori

Komilova R

UrDPI pedagogika fakulteti talabasi

Matyaqubova V

UrDPI pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab o'quvchilari orasida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarni -“Bilimdonlar bellashuvi” ni tashkil etish dasturi haqida ma'lumotlar berilgan. Turli xil tanlovlarning o'quvchilar bilimi va dunyoqarashini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *bellahuv, kreativlik, o'quvchilar orasida sog'lom raqobat, bosqichlar.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о программе организации внеклассной работы – «Конкурс стипендиатов» среди школьников. Выявлено значение различных конкурсов в совершенствовании знаний и кругозора учащихся.*

Ключевые слова: *веселье, творчество, здоровая конкуренция среди учащихся, этапы.*

Abstract: *This article provides information about the program for organizing extracurricular activities - "Competition of Scholars" among schoolchildren. The importance of various competitions in improving students' knowledge and outlook is revealed.*

Key words: *fun, creativity, healthy competition among students, stages*

Ma'lumki, bugungi axborot oqimi ko'payib borayotgan kunda o'quvchi yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga alohida e'tibor qaratiishi lozim. Maktab o'quvchilarining darsdan keying vaqtlarini samarali ishlar bilan nband qilish har bir pedagogdan yangicha yondashuv talab qiladi. 9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazish uchun mo'ljallangan “Bilimdonlar bellashuvi” ssenariysi aynan yoshlarning ilmga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu bellashuv dasturini taqdim qilamiz.

Maktab o'quvchilaridan 4 ta jamoa tuziladi. Har bir jamoada 5 nafardan o'quvchi ishtrok etadi. Ular o'zaro 4 shart asosida bellashadi. Ularga to'rt nafar tarixiy daholar qiyofasidagi hakamlar savollarini beradi va baholab boradi.

1-shart. Tarix fanidan tarix otasi Gerodot savol yo'llaydi. Qaysi jamoa tez va aniq javob bersa, Gerodotning sovg'asini kitoblarni qo'lga kiritadi. Gerodotning savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. “Avesto” kitobi qachon qayerda yaratilgan?
2. Tarixda ilmi nujum nimani o'rgangan?

3. Jaloliddin Manguberdi haqida nimalarni bilasiz ?
4. Registon majmuasi qaysi shaharda joylashgan?
5. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining muallifi kim?
6. Ibn Sinoning asarlari nomini sanang.
7. Ma’mun akademiyasi qachon qaysi shaharda ochilgan?

2-shart. Adabiyot shartida A. Navoiy bilimdonlarga savollarini yo‘llaydi.

Navoiydan savollar (she’riy savolga o‘quvchilar javob beradilar)

Ilmtalab avlodlarim,
Komillikda farhodlarim,
Ruhimga baxsh etib huzur,
Meni yod etdingiz shukur.
Sizga savol berurman,
Javobdin shod bo‘lurman,
Mengacha jahon aro,
Kimlar “Xamsa” qildi paydo?

**

Navoiyga ilm bergan,
Hidoyatli qo‘lin bergan,
So‘z yo‘lida hamrozlar,
Ayting, qaysi ustozlar?

**

“Farhod Shirin” qissasidan,
Fikr aylang bul hissasidan,
Nechun Shirin ishqiga ul,
Xusravni ko‘r madim ma’qul?

**

“Xamsa” ning ibtidosi,
So‘z durlarin ziyosi
“Hayrat ul abror” erur,
Andin ne oshkor erur?

**

“Yetti sayyora” aro,
fikr otin surdingiz,
“Muqbil ila Mudbir” dan
Ne xulosa qildingiz?

**

Kuyladim ishq dardini,
Artdim ko‘ngul gardini,
Bundin muddaom nedur,
Ishq degan kalom nedur?

**

Kim erdi ul yuzi poku so'zi pok,o'zi pok
Javob aylang avlodlarim qilib dilni tarabnok.

**

Lu'bati shang, ishq i butun, baxti nigun
Ul go'zalning ismin ayting, ma'nosi tun?
Avlodlar yod etsa huzur, mehr shunday ilohiy nur,
Ilm oling dilbandlarim, ilm- baxtga eltguvchi yo'l.
"Nafs itini zabun" eting, yurt tuprog'in gulgun eting,
Biring o'g'lim, biring qizim, Navoiyni mamnun eting.

Navoiyni mamnun eting!!!

3-shart. "Geografiya" fanidan bo'lib, o'quvchilarni Buyuk bobokolonimiz Beruniy savol-javob qiladi. U quyidagi savollarni beradi:

1. Dunyodagi eng katta daryo qaysi?
2. Nomi xato qo'yilgan qit'a?
3. Eng katta sharshara?
4. Eng baland cho'qqi?
5. Kimlar geografiya ilmi bilan shug'ullangan?
6. Qanday mintaqalar bor?
7. 7 iqlimni sanang

4-shart. Ingliz tili fanidan bo'lib, ishtirokchilar inglizcha qo'shiq, she'r, monolog ijro etib berishi lozim. G'oliblarni Shekspir obrazidagi hakam baholaydi va mukofotlaydi. Har bir tarixiy shaxslar qiyofasidagi hakamlar ishtirokchilarni baholaydilar va g'oliblarni e'lon qiladilar

"Bilimdonlar bellashuvi" oxirida hamma jamoa birga esdalik uchun tarixiy shaxslar bilan rasmga tushadi. Ushbu bellashuv jamoalar orasida sog'lom raqobatni va ilmsevarlikni kuchaytiradi.